

O'QUVCHILARDA BADIY-ESTETIK QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA FOLKLORNING ROLI

Sh.A.G'aniyeva

FarDU dotsenti, f.f.d (DSc)

Sh.A.Anvarova

Upgrade LC o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20320510>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti vositasi va folklor yordamida kichik maktab yoshidagi bolalarda badiiy-estetik tafakkur rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ziddiyat, hayotiy ruhiyat, ezgulik va yovuzlik, yumorga boylik, tasnif qilinuvchi asarlar.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati — o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davri va ijtimoiy muhiti bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash barchamizning eng muhim vazifamizdir" deya aytib o'tganlar[1]. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi. Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi. Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda, asosan, ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek bolalar adabiyotining barqarorlashuvi ham 19-asr 2-yarmi 20-asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Bu esa, xalq og'zaki ijodining boshlanishidan dalolat beradi. Xalq og'zaki ijodining paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar va miflar hal qiluvchi rol o'ynagan. Xalq og'zaki ijodining mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqea va hodisalar, urug' va qabilalar turmushi bilan bog'liq miflar, an'anaviy urf-odatlar o'z kuchi va maishiy vazifasini yo'qotib, kishilar ongida g'aroyib narsa bo'lib anglashila boshlagan edi. Xalq og'zaki ijodi motivlarining dastlabki namunalari ta'limiy-didaktik xarakterda bo'lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan. Darhaqiqat, o'zbek folklorining doston, ertak kabi epik janrlarida an'anaviy yor izlash yoki o'zga urug'dan uylanish motivining yuzaga kelishi hamda keng ommalashishiga ekzogamiya bilan bog'liq xalq qarashlari asos bo'lgan bo'lib, bu rivoyat janri syujet tizimidagi motivlar silsilasining shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq ertaklari bir ko'rinishdagi xalqning ovunchog'i, hordiq chiqarish vositalaridan biri sifatida ko'zga tashlansa ham ularning falsafiy asoslarini, ijtimoiy muhitining badiiy in'ikosi sifatidagi ahamiyatini e'tibordan soqit qilish mumkin emas. Folklorshunoslikning shunday xususiyatlari ham ma'lumki, ularda maishiy hayot masalarigina emas, balki muhitning ijtimoiy muammolari o'z ifodasini topadi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarning "Yangi usul" ("usuli jadidiya")dagi o'zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek bolalar adabiyotining tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyotiga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash 20-asr boshlariga xosdir. Bolalar adabiyoti va unda berilgan har bir asar kattalar adabiyotida berilgan asarlardan shunchalik farq qiladiki, bolalar

adabiyoti sodda, ravon va tushunishga oson hamda bolalarcha ruhda yozilgan. Shuning uchun bolaning darslaridagi asosiy maqsad - uni qanday qilib tasvirlashni o'rgatish va oxirida nimani kashf etganini tushunishdir. Ba'zida, biz bilmagan holda, o'yin va muloqot orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiramiz. Ba'zida bolalar adabiyotida xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratilgan asarlar o'quvchini o'ziga jalb qilibgina qolmay, balki ularni o'tmishimizda bo'lgan voqealar, xalqimiz qahramonlari va ularni ona Vatan uchun qilgan jasoratlari haqida o'ylashga hamda ular bilan fahrlanishga chaqiradi. Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan asarlar ko'pincha ona Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o'qish haqida bo'lishi talab etiladi. „Zumrad va Qimmat“ , „Oltin tarvuz“ , „Dehqon bilan ayiq“ , „Haqqush“ (tojik xalq ertagi), „Danak“ (qirg'iz xalq ertagi), „Kuch va topqirlik“ (latish xalq ertagi), „O'tinchi yigit“, „Bo'ri bilan echki“ singari ertaklar kichik maktab yoshidagi bolalar sevib o'qiydigan asarlardir. Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi[2]. Negaki, chin mukammal tarbiyali bola boshqalarga ozor yetkazmasligi, takabburlik qilmasligi, hech kimga past nazar bilan qaramasligi, rostgo'y bo'lishi lozimligini kichkintoylar avval tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Yaxshi bola o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli, xushmuomala bo'lishi lozimligi ularga ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish....”PQ-3271-son Qaror (2017-yil 13-sentabr)
2. Jumaboyev M. *Bolalar adabiyoti va folklor.*-Toshkent:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi va adabiyoti jamg'armasi nashriyoti,2006.
3. www.ziyonet.uz
www.pedagog.uz